

## ZA'FARON (CROCUS SATIVUS) O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA TABOBATDAGI AHAMIYATI

**Yangiboyeva Zebiniso Abduraxmanovna**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Xolmirzayeva Aziza Abdilbase qizi**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Norimova Fotima Maxadjonovna**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti talaba*

Za'faron o'simligi krokus gullari (*Crocus sativus*) popugidan olingan to'q sariq rangli oziq-ovqat bo'yog'i, ziravor sifatida tanilgan o'simlikdir. Bu o'simlik bugungi kunda dunyodagi eng bebafo, qimmatbaho o'simlikdir. Za'faron O'rta yer dengizida, Yaqin Sharqda, Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo davlatlarida, jumladan Eron, Hindiston, Turkiya, Gretsiya, Italiya, Pokiston, AQSH, Ozarbayjon, Rossiya qatorida, bugungi kunda O'zbekiston hududlarida ham katta plantatsiyalarda yetishtirilmoqda. Za'faron o'simligining balandligi 10-30 sm ga yetadigan ko'p yillik o't o'simlik xisoblanadi. Bu o'simlikning ildizi 2-3 sm, barglari tik o'suvchi, bigizsimon ko'rinishga ega. O'simlik gullari zich to'plamda joylashadi. O'simliklarda to'p barglari gullah davridan 10-15 kun oldin paydo bo'ladi.

Za'faronning gullari yirik bo'ladi. Uning gullari pushti rangda 564 tagacha bo'lib, oktyabr oyining oxiri va noyabr oyining birinchi yarmida gullaydi. Gul barglarining ichida changchilar – qizil, urug'chilar – to'q sariq rangda bo'ladi. Urug' hosil qilmasligi sababli vegetativ usul bilan (piyozboshchalar orqali) ko'paytiriladi. Dunyo bo'yicha za'faron o'simligi hosilining 90% gachasi Eronda yig'iladi. Bizning mamlakatimizda za'faron plantatsiyasi O'zbekiston va Italiya o'rtasidagi xalqaro investitsiya loyihasi doirasida paydo bo'ldi. Za'faron o'simligi ekilgandan birinchi yili gektaridan 2 kggacha, ikkinchi yilda esa 4 kggacha, uchinchi yildan boshlab esa 6-8 kg gacha za'faron guli xomashyosi terib olishimiz mumkin. O'simlikning bir kilogramm quritilgan za'faron guli xomashyosini tayyorlash uchun 150 mingdan ortiq gullari terib olinishi kerak. 1 dona za'faron gulidan o'rtacha 7 mg quritilgan ziravor olinadi. Bu o'simlik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan za'faron o'simligining respublikada keng maydonlarda joriy etish, o'simlik plantatsiyalarini ko'paytirish, o'simlikni yetishtirish, sohaga chet el investitsiyasini jalb etish va eksport salohiyatini oshirish va xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan Jizzax viloyatining Baxmal tumanida Italiya davlati bilan hamkorlikda "BMB Opera Zafferano" MCHJ qo'shma korxonasi tashkil etildi.

Za'faron o'simligi tibbiyotda onkologik kasalliklarni davolashda (hatto kasallikning oxirgi bosqichida saraton o'simtalariga qarshilik ko'rsatadi va ularning hujayralari o'sishini to'xtatadi), qonni tozalashda (uni yangilaydi va tozalaydi, demak yurak qon tomir tizimini mustahkamlaydi, organizmning barcha hujayralarini

oziqlantiradi), miya faoliyati faolligini yaxshilaydi (bosh miya to'qimalarini o'stiradi, yoshartiradi, xotirani yaxshilaydi), nevrozdan forig' qiladi, bosh og'rig'i va uyqusizlikdan xalos etadi, oshqozon-ichak faoliyatini me'yorga keltiradi. Bundan tashqari organizmni quvvatlaydi, ko'rish qobiliyatini tiklaydi, ko'z to'rpardasidagi barcha illatlarni davolaydi, butun organizmni ish faoliyatini yaxshilab, yoshartiradi. Yevropa davlatlariga za'faron xom ashyosidan tayyor mahsulotni eksportga chiqarish maqsadida Italiya davlatidan 21 mln donadan ortiq piyoz tuganaklari olib kelinib, bugungi kunda Baxmal tumanida jami 205 hektar maydonda za'faron plantatsiyasi barpo etildi.

Ushbu amalga oshirilgan ishlar natijasida, 2021 -yilda 773 ming AQSH dollari miqdoridagi za'faron mahsulotlari Italiya davlatiga eksporti amalga oshirildi. Jizzax viloyati Baxmal tumanida za'faron "BMB Zafaron" brendi ostida milliy mahsulot sifatida yetishtirilib, qayta ishlanmoqda. Ushbu loyihani amalga oshirish uchun 2022-yilda Italiyadan O'zbekiston Respublikasiga 16 mln dona za'faron piyozi olib kelingan. 2021-yilda esa 20 mln dona piyozi ekilgan edi.

Ayni paytda plantatsiya 305 hektardan ortiq maydonni egallaydi. Za'faron o'simligi guli qadimgi Misr va Ossuriya tabiblarining yozuvlarida juda ko'p tilga olingan. Yunonchadan tarjima qilganda gullagan za'far, ya'ni "krokus" – ip yoki tola degan ma'noni anglatadi. Uning ikkinchi nomi - "za'far" arab tilida "zeferan" "sariq" degan ma'noni beradi. U tibbiyotda, kosmetologiyada va bundan tashqari pazandachilikda keng qo'llaniladi.

O'simlikning gullari kichik qo'ng'iroqlar yoki bokallarga o'xshaydi. Ular yolg'iz o'sadi, gullari ochilganida diametri 5 sm ga etadi. Za'farning qiymati uning popuklarida. Ushbu birgina o'simlikning keng ommalashishi, p andemiya davrida aholi salomatligi uchun shifobaxsh mahsulotlar turlariga talabning ortishi, suv taqchilligi davrida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun yuqori daromad manbai 566 ekanligidan ko'rinish turibdiki, dorivor o'simliklar sohasi respublikada endi rivojlanayotgan, misli ko'rinas katta tabiiy zahiraga ega istiqbolli sohalardan biridir.

Bugungi kunda ushbu sohani yana-da rivojlantirish, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, sohaning yagona bir tizimga birlashishi zamon talabi hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston dorivor o'simliklar atlasi o'quv qo'llanma Samarqand SamDU nashriyoti, 2021. -224 bet
2. O'ZME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Hojimatov Q. Olloyorov M. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari va ularni muhofaza qilish. T..1998
4. [www.agro.uz](http://www.agro.uz)